

DAVLAT STANDARTLASHTIRISH TIZIMINING ASOSIY MAQSAD VA VAZIFALARI

Sayifov Botirali Zokir o'g'li

Toshkent kimyo-texnologiyalari Instituti Shahrisabz filiali talabasi

Email: bsayifov@gmail.com

Ilmiy rahbar: **Toshboboyev Shahzod**

Toshkent kimyo-texnologiyalari instituti Shahrisabz filiali o'qituvchisi

ANNOTATSIYA: Davlat standartlashtirish tizimining asosiy maqsadi — (O'z DSt) standartlashtirish me'yoriy hujjatlariga asoslangan holda, ishlab chiqarishni Vatanimiz ilm-fani yutuqlariga tayanib, jahondagi rivojlangan mamlakatlar yutuqlaridan o'rnak olgan holda tashkil qilishni, yangi standartlarni ishlab chiqish jarayonlarida kategoriyalar o'rtasidagi uzviylikni ta'minlashni nazoratini va xalq xo'jaligining barcha tarmoqlarida ularni qo'llashni amalga oshirishdan iborat.

KALIT SO'ZLAR: standartlashtirish, O'zDST, Standartlar kompleksi, sifat, sertifikatlashtirish, ISO, texnik qo'mita, yordamchi qo'mita.

ABSTRACT: The main goal of the state standardization system is to organize production based on (Uz DSt) normative documents of standardization, relying on the achievements of the science of our country, following the examples of the achievements of developed countries in the world, in the process of developing new standards, categories o is to implement the control of ensuring coherence between and their application in all sectors of the national economy.

KEY WORDS: standardization, UzDST, set of standards, quality, certification, ISO, technical committee, auxiliary committee.

Standartlashtirish - muayyan sohada tartibga solishning optimal darajasiga erishishga yo'naltirilgan faoliyat bo'lib, u standartlarning ishlab chiqilishi, e'lon qilinishi, qo'llanilishi, shuningdek, mahsulotlar, jarayonlar va xizmatlarning ularning funksional maqsadiga muvofiqligi darajasini oshirishning optimal darajasiga erishish, savdo-sotiqdagi to'siqlarni bartaraf qilishga va ilmiy-texnikaviy hamkorlikka ko'maklashishga qaratilgan faoliyatdir. Standartlashtirish eng kam mehnat sarflari bilan mahsulot sifatining zarur darajasini shakllantirishga, avtomatik liniyalar, mashinalar, asboblari, apparatlarning zamonaviy talablarga javob beradigan yangi turlarining ishlab chiqarilishini ko'paytirishga imkoniyat yaratadi. Mashinalar, shu

jumladan, aviatsiya texnikasi konstruksiyalari uzluksiz ravishda takomillashtirilmoqda, buyumlar, ularning agregatlari va detallarining bir xillashtirilishi va standartlashtirilishi asosidagi tarmoq ichidagi va tarmoqlararo ixtisoslashuv kengaymoqda, kompleks va ilgari yuradigan standartlashtirish uslublari keng qo'llanilmoqda, xalq xo'jaligini boshqarishning umumiy prinsiplari va qonuniyatlariga, texnik, tashkiliy, iqtisodiy, ijtimoiy va tarbiyaviy chora-tadbirlarga asoslanadigan mahsulot sifatini boshqarish va attestatsiyalash tizimlari, ishlab chiqarishning texnologik tayyorgarligi tizimi joriy etilmoqda. Yuksak malakali mutaxassislarning mavjudligi mahsulot sifatini oshirishning ilg'or tajribasi, mahsulot sifatini boshqarish tizimlarining tatbiq qilinishini ta'minlaydigan eng muhim shart hisoblanadi. Standart - bu standartlashtirish obyektiga nisbatan normalar, qoidalar, talablar kompleksini belgilaydigan va vakolatli organ tomonidan tasdiqlangan me'yoriy-texnik hujjatdir. Standartlar fan, texnika va amaliy tajribaning umumlashtirilgan natijalariga asoslanishi va jamiyat uchun optimal foydaga erishilishiga qaratilgan bo'lishi kerak. Ularni nafaqat mahsulotlar, etalonlar va shu kabilarga, shu bilan birga normalar, qoidalar, talablar va shu kabilarga ham ishlab chiqiladi. Me'yoriy hujjat - faoliyatning har xil turlariga yoki ularning natijalariga ta'alluqli bo'lgan qoidalar, umumiy prinsiplar yoki tavsifnomalarni belgilaydigan hujjatdir. Sifat - bu obyektning belgilangan va taklif qilinadigan ehtiyojlarni qondirishning o'ziga xos xususiyatlariga ta'luqli bo'lgan tavsifnomalarining majmuidir. Imiy-texnik faoliyat sifatidagi standartlashtirish bilan obyekt tavsifnomalarining majmui sifatidagi sifat tushunchasining o'zaro bog'liqligi standartlashtirish bo'yicha xalqaro tashkilot tomonidan qabul qilingan ushbu atamalarning yuqorida keltirilgan ta'riflariga asoslanadi. Standartlashtirish real mavjud bo'lgan vazifalarning hal qilinishiga, sifat esa - belgilangan ehtiyojlarning qondirilishiga qaratilgandir. Bunda mahsulotlar, jarayonlar, ishlar, xizmatlarning ularning funksional maqsadlariga muvofiqligi darajasining oshirilishi standartlashtirish bo'yicha faoliyatning eng muhim natijalari hisoblanadi.

Standart hujjat nafaqat ishlab chiqarilayotgan mahsulot uchungina emas (oziq-ovqat, andozalar, ko'rgazma mahsulotlar va b.), balki tashkiliy uslubiy umumtexnika obyektlariga tegishli qilib insoniyat hayot faoliyatining barcha jabhalarini o'z ichiga oladigan qilib ishlab chiqiladi. Shu jumladan O'zbekiston Respublikasi Standarti tushunchasi mavjud bo'lib — bu, respublikadagi standartlashtirishga oid davlat yoki nodavlat tashkiloti tomonidan uning vakolatidan kelib chiqib tasdiqlangan standartdir. O'zbekiston Respublikasida standartlarning quyidagi kategoriyalari mavjud:

1. Xalqaro, regional va milliy standartlar ISO XS, MEK.
2. Davlatlararo standartlar, MDH standartlari;
3. O'zbekiston Respublikasi Davlat standarti (O'z DSt);

4. Tarmoq standarti (TS) yoki soha standarti (SST);

5. Korxonalar, birlashmalar, firma, konsernlar va boshqa xo'jalik yurguzuvchi subyektlar standarti (KS);

6. Texnik shart (TSH);

Davlatlararo va MDH o'rtasida bu sohada foydalaniladigan standartlar, davlat standartlarini xalqaro, regional, ilg'or standartlar tizimlari va boshqa xorijiy davlatlar standartlari bilan uyg'unlashuvini ta'minlash uchun xizmat qiladi. Standartlashtirishning texnika taraqqiyotidagi rolini oshirish, mahsulotning sifati va raqobatga bardoshlilikini hamda uning tejamlilikini oshirish uchun Davlat standartlashtirish tizimi (O'zDST) joriy etilgan bo'lib, u standartlashtirish maqsadlari va vazifalarni belgilaydigan o'zaro bir-biriga bog'liq bo'lgan qoidalar, talablar majmuini, standartlashtirish organlari va xizmatlari tuzilishini, ularning xalq xo'jaligining hamma sohalaridagi huquqlari va majburiyatlarini o'z ichiga qamrab oladi. U me'yoriy hujjatlarning rejalashtirilishi, ishlab chiqilishi, kelishilishi, tasdiqlanishi, davlat ro'yxatidan o'tkazilishi tartibini, ularni tekshirish, bekor qilish, qaytadan ko'rib chiqish, ularga o'zgartirishlarni kiritish tartibini; mahsulotlarni ishlab chiqarish, xizmatlarni ko'rsatish, tashish, saqlash, sotish, ta'mirlash, foydalanish, me'yoriy hujjatlarning ilmiy-texnik darajasining ekspertizasi va baholanishini o'tkazish uslublarini, xalqaro, davlatlararo, mintaqaviy, xorijiy standartlarning qo'llanilishi usullari va shu kabilarni belgilaydi.

O'zDSTning asosiy qoidalari O'zbekistonda standartlashtirish bo'yicha ishlarning tashkil etilishi va o'tkazilishiga nisbatan umumiy qoidalarni belgilaydi va me'yoriy hujjatlar majmuidagi asosiy qoidalar hisoblanadi. Davlat standartlashtirish tizimining asosiy maqsadiga quyidagilar kiradi:

- Mahsulot sifatini, ish madaniyati sifatini yaxshilash va ularni yetarli darajada saqlash.

- Mahsulot ishlab chiqarish, loyihalash ishlarini maxsuslashtirish, mehnat sarfini, metall sig'imdorligini kamaytirish va boshqa ko'rsatkichlarni yaxshilash.

- Ishlab chiqariladigan mahsulotlar evaziga Vatan mudofaasi bilan bog'liq masalalarni ta'minlash.

- Jahon bozori talablariga javob beradigan yuqori sifatli mahsulotlarni eksport qilishni rivojlantirishni ta'minlash.

- Ishlab chiqarish fondidan unumli foydalanish, tejamkorlik tamoyillari.

- Xalqaro iqtisodiy va texnikaviy hamkorlikni rivojlantirish.

- Mehnat xavfsizligini, xalq salomatligini ta'minlashda ishtirok etish, tabiiy boyliklaridan unumli foydalanish muammolarini belgilaydi.

Standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlash bo'yicha olib boriladigan barcha rahbarlik, davlatimiz mustaqillikka erishganidan keyin, 1992-yildan boshlab

O‘zbekiston Respublikasi Davlat Standarti (DS) qo‘mitasi zimmasiga yuklatilgan. O‘tgan vaqt mobaynida O‘zbekiston Respublikasining bu sohaga tegishli qonunlari joriy qilindi. Standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlash qo‘mitasini rivojlanib "O‘zstandart" Agentligiga aylanishiga asos soldi. Bundan tashqari Vazirlar Mahkamasining 05.08.2004 yildagi 373-sonli Farmoni bilan O‘zbekiston Respublikasining "Standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlash" sohasiga tegishli "O‘zstandart" Agentligining "Faoliyat ko‘rsatish tizimi tuzilishini rivojlantirish" masalalari qayta ko‘rib ehiqildi va tegishli tartib-qoidalar tasdiqlandi.

Standartlashtirishning asosiy vazifasi va huquqlari DST tomonidan tasdiqlangan nizomga binoan, amalga oshiriladi. Standartlash bo‘yicha ishlarni rejalashtirish — bu davlat tomonidan rejalashtirishning asosiy qismini egallaydi. Standartlashtirish topshiriqlari va xalq xo‘jaligini rivojlantirishning rejalariga ko‘p yillik: 10 yilga yoki 5 yilga mo‘ljallangan bo‘lishi mumkin. Bir yillik rejalar ham mavjud bo‘lib, bular DST tomonidan tasdiqlangan bo‘lishi lozim.

Bundan tashqari Respublikamizda "Sandartlar kompleksi" nomi bilan standartlar mavjud bo‘lib, u o‘zaro bir-biri bilan bog‘langan standartlar yig‘indisini tashkil etadi, malum bir yo‘nalishdagi ilmiy-texnikaviy va ijtimoiy-iqtisodiy masalalarni yechishda me‘yoriy ta‘minotni amalga oshirishni maqsad qilib, o‘zaro bir-biri bilan bog‘langan standartlar o‘rtasida obyektlar uchun standartlashtirish bo‘yicha umumiy talablarni o‘rnatadi. Bizning vatanimizda standartlar, texnik shartlar va ularga kiritiladigan o‘zgarishlar davlat tilida hamda millatlarning o‘zaro muloqot tilida ro‘yxatidan o‘tkaziladi. Xalq xo‘jaligida standartning quyidagi ko‘rinishlari mavjud:

- texnik talablar yozilgan hujjatlar;
- parametrlar va o‘lchamilar;
- turlar va asosiy tegishli chegaraviy o‘lchamilar;
- tuzilishlar;
- marka va assortimentlar;
- namunaviy texnik jarayonlar;
- qabul qoidalari;
- nazorat usullari (tekshiruv, tahlil va o‘lchash);
- axborot ma‘lumotini yozish, qadoqlash, tashish va asrash;
- foydalanish va ta‘mirlash.

Standartlash bo‘yicha Xalqaro tashkilot (ISO) 1946-yilda tashkil topgan bo‘lib, nodavlat tashkilot hisoblanadi va BMT imtiyozlaridan foydalanadi. Quyidagi tashkilotlar ISO a‘zolari bo‘lishi mumkin:

- standartlashtirish bo‘yicha milliy tashkilotlar;
- standartlashtirish bo‘yicha milliy tashkiloti bo‘lmagan davlatlar vakillari.

Hozirgi vaqtga kelib ISO tashkilotiga dunyoning 90 dan ortiq davlatlari a'zo bo'lishgan. Hamda O'zbekiston Respublikasi bu tashkilotga 1992-yildan a'zo hisoblanadi. Xalqaro ISO tashkiloti quyidagi vakolatlarga ega:

— tashkilotning barcha a'zolari roziligi asosida xalqaro standartlarni joriy qilish;
— yangi progressiv texnologiyalarni joriy qilish, ommaviylashtirish va ishlab chiqarishga olib kirishni amalga oshirish;

— o'z a'zolarining va texnik qo'mitalarning o'zaro tajriba hamda ma'lumot almashinishini tashkil qilish;

— jahondagi boshqa xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik qilish. ISOning rasman mulqot tili sifatida: rus, ingliz va fransuz tillari qabul qilingan. ISO da faoliyat ko'rsatayotgan texnik qo'mita (TQ) va yordamchi qo'mitalar (YQ) xalqaro standartlarni ishlab chiqish uchun xizmat qiladi. Agar uning uchun texnik qo'mita va yordamchi qo'mita a'zolarining kengashda qatnashayotgan jarayondagi 2/3 foizi ijobiy ovoz bersa, Xalqaro standart loyihasi qabul qilinishi mumkin. Jahonda mavjud xalqaro ISO tashkiloti ko'rsatmasiga va standartlariga binoan barcha standartlar ishlab chiqiladi va amalga tadbiq etiladi. ISO ning Nizomi bo'yicha asosan maqsadli, mamlakatlar orasida tovar almashinishini (savdo-sotiq) rivojlanishi va fan-texnika, iqtisodiyot yutuqlarini baham ko'rish masalalarini ilgari suriladi. ISOning oliy tashkiloti Bosh Assambleya bo'lib, u har 3 yilda 1 marta o'z majlisini chaqiradi va o'zining prezidentini saylaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'ZBEKISTAN RESPUBLIKASI STANDARTI. O'zbekiston davlat standartlash tizimi. Asosiy qoidalar. O'z RST 1.0-92.
2. Metrologiya, standartlashtirish va sertifikatlash borasidagi O'z DSt hamda Xalqaro ISO standartlari.
3. «Metrologiya va standartlashtirish» fanidan laboratoriya ishlari va amaliy mashg'ulotlarni bajarish uchun uslubiy ko'rsatma. T.: ToshDTU 2017.